

## TA'LIMDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ

**Mamatmusayev Jaloliddin Xayrulla о'г'ли  
Muxammadaliyev Nodirjon Voxidjon о'г'ли  
TATU Sun'iy intellekt yo'nalishi talabalari**

**Annotatsiya:** Ushbu tezis ta'lif jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali o'qitishning interfaol shakl va metodlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Zamonaiviy ta'lifda interfaol doskalar, onlayn ta'lif platformalari va mobil ilovalar kabi raqamli texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari ko'rib chiqiladi. Interfaol metodlar, jumladan, suhbatlar, munozaralar, loyiha ishlari va interfaol o'yinlar orqali ta'lif sifatini oshirish yo'llari o'rganiladi. Shuningdek, ilg'or xorijiy davlatlarning tajribalari misolida raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning muvaffaqiyatli amaliyotlari tahlil qilinadi. Tezis ta'lif jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish uchun innovatsion texnologiyalarni to'g'ri qo'llash bo'yicha tavsiyalar beradi.

Zamonaiviy ta'lif jarayonida innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi ta'lif tizimining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu texnologiyalar o'qitishning interfaol shakl va metodlarini yanada samarali qilishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarni ta'lif jarayoniga tatbiq etish orqali o'qitish metodlari va shakllarining tahlili keltiriladi.

Ta'lif jarayoniga joriy etilayotgan innovatsion texnologiyalarning ta'rifni va turlari haqida qisqacha aytadigan bo'lsak:

- **Interfaol doskalar:** An'anaviy doskalarga nisbatan interfaol doskalar o'quvchilarning darsga faol jalb qilinishini ta'minlaydi. Ular dars materiallarini vizual tarzda taqdim etish va real vaqt rejimida ularga izoh berish imkonini beradi.
- **Ta'lif platformalari:** Moodle, Google Classroom kabi onlayn platformalar darslarni tashkil etish, uy vazifalarini berish va qayta aloqa o'rnatishda yordam beradi.
- **Mobil ilovalar:** O'quvchilar uchun interfaol o'quv ilovalari va o'qituvchilar uchun boshqaruvi ilovalari ta'lif jarayonini yanada qulay va samarali qiladi.

Interfaol ta'lif shakllari va metodlari haqida gapirganda, interfaol ta'lifning afzalliklariga alohida to'xtalib o'tishimiz kerak bo'ladi:

- O'quvchilarning darsga jalb qilinishi va motivatsiyasini oshirish.
- O'quvchilarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.
- Ta'lif jarayonida o'zaro faoliyat va muloqotni kuchaytirish.

Interfaol metodlar doirasida esa quidagilarni ko'rishimiz mumkin bo'ladi:

- O'quvchilarning o'z fikrlarini ifoda etish va muhokama qilish orqali bilimlarini mustahkamlash.
- Guruh bo'lib ishlash va loyiha tayyorlash orqali amaliy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish.

- Dars jarayonida turli o'yinlardan foydalanish orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish va bilimlarni qiziqarli tarzda yetkazish.

Ta'limga jarayonida raqamli texnologiyalarning qo'llanilishida ta'limga sifati, raqamli texnologiyalar dars materiallarini interfaol va vizual tarzda taqdim etish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida onlayn resurslar va materiallar yordamida o'quvchilar uchun qo'shimcha bilim olish imkoniyati yaratadi.

Bunday imkoniyatlardan foydalanib kelgan Finlyandiya ta'limga tizimi raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llab, yuqori natijalarga erishgan. Bundan tashqari, Singapurda raqamli vositalar orqali o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ta'limga berish amaliyoti joriy etilgan.

Darslarni samarali tashkil etish uchun interfaol texnologiyalardan foydalanish kata yutuqlar beradi. Bunda Interfaol darslar uchun o'quv dasturlarini tayyorlash va ular asosida darslarni rejalashtirilib, interfaol darslarning tuzilishi dars boshlanishida mavzu bilan tanishtirish va o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish bilan boshlanishi kerak bo'ladi. Dars davomida interfaol vositalar (masalan, interfaol doskalar) orqali asosiy mavzuni tushuntirish o'quvchilarni darsga qiziqishini ortishiga yordam beradi. So'ng o'quvchilarning faoliyatini kuzatish va raqamli vositalar yordamida o'quvchilarning bilim darajasini baholash va tahlil qilish kerak bo'ladi.

Ta'limga jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish o'qitishning interfaol shakl va metodlarini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning darslarga jalb qilinishini oshirish, bilimlarni yanada samarali va qiziqarli tarzda yetkazish imkonini beradi. Interfaol vositalar va metodlarni ta'limga jarayonida to'g'ri qo'llash orqali ta'limga sifati va samaradorligini oshirish mumkin.

## Foydalilanigan adabiyotlar:

1. "Teaching with Technology: Tools and Strategies to Improve Student Learning" - Judith V. Boettcher, Rita-Marie Conrad
2. "Educational Technology: A Definition with Commentary" - Alan Januszewski, Michael Molenda
3. [www.unesco.org/en/articles/role-digital-technologies-education](http://www.unesco.org/en/articles/role-digital-technologies-education)